

„DEVONU LUG‘OT IT TURK“ ASARIDA MILLIY TARBIYAGA OID  
QARASHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bahodir Abdullajanovich Qo‘chqarov

Turan Internatsional University

Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti  
o‘qituvchisi

Tel: +99891 350 -43-15

**Annotatsiya.** XI asrda yashab ijod etgan yirik qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘ot it turk“ asarini o‘qir ekanmiz, unda aks etgan XI asrdagi turkiy xalqlarning boy, o‘lmas bebeho milliy qadriyatları hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaganligini guvohi bo‘lamiz. Zero, unda bugungi kunda ham turkiy xalqlarga xos o‘z milliy qadriyatlarini saqlab qolgan bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq, ilm egallash yuksak insoniy fazilat ekanligi, u insonni har qanday sharoitda ham yuksaklikka olib chiqishi muqarrar ekanligi haqidagi, shu bilan birga mehnatsevarlik, qo‘sniqchilik, erk, ozodlik haqidagi xalq maqollarini uchratishimiz hamda ulardan yosh avlodni milliy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda unumli foydalanishimiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik qarashlar, Vatanga bo‘lgan muhabbat, bilim olish, baxt, o‘gutnasiyat, erk, ozodlik, vatanparvarlik, qo‘sniqchilik, mehnatsevarlik, kengashib ish ko‘rish.

Xalqaro miqyosdagi pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda milliy qadriyatlarning tub mohiyati, ularning ma’naviy ildizlarini anglash uchun yozma merosni izchil o‘rganish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, yoshlarga o‘tmish ajdodlarimizning boy ijodiy merosi orqali ilm-fan, ma’naviyatimiz, san’atimiz va madaniyatimiz, milliy urf-odatlar, axloqiy qarashlar kabi insoniy tuyg‘ularni o‘zida mujassam etgan milliy pedagogik axloqriy qadriyatlarimizning singdirish, muammolarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlaimizni mustqail fikrlaydigan yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, [Mirziyoyev Sh.M. 1:56-b] degan da’vatlarini o‘qir ekanmiz, yoshlarimizning milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlar ruhida, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun ta’lim – tarbiya sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Inson o‘zligini anglagani, nasl- nasabini chuquroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi. Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqisi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.

Yoshlarni milliy urf-odatlar, ma’naviy qadriytalarimiz asosida tarbiyalashda ularda buyuk ajdodlarimizdan minnatdorchilik, g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash kerak.

Zero, ma’naviy, axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or-nomuslilik, yaqinlarlariga g‘amxo‘r bo‘lish kabi insoniy tuyg‘ular o‘z –o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning asosida milliy qadriyatlar, milliy tarbiya yotadi. Shularni hisobga olgan holda “Devonu lug‘otit-turk” da xalqning bebaho donoligini ifodasi bo‘lgan uch yuzga yaqin maqollar mavjudki, biz buning yoniga ko‘plab pandnomalar, masal va hikoyalarni kiritadigan bo‘lsak, bu asarning milliy pedagogikamiz tarixidagi o‘rnini va ahamiyatini tasavvur etish paydo bo‘ladi.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan taniqli qomusiy olimdir.Uning “ Devonu lug‘ot it-turk”( Turkiy so‘zlar devoni) asarida jamlangan manbaa va materiallari ko‘plab fan sohalariga taaluqli ekani bilan jahon olimlarining hayratini oshirib kelmoqda.Asarda matematika, kimyo, botinika, zoologiya, anatomiya, geografiya, tarix, etnografiya, til tarixi, shevashunoslik, til nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik, folklor va yozma adabiyot, adabiyot nazariyasi va boshqa ko‘plab sohalarga oid benazr kuzatishlar o‘z aksini topgan.Olim XI asrdagi xalqlarning urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini, o`sha davr kishilarining o`ziga xos ruhiy-ma’naviy olamini bayon etgan.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlarning pedagogik qarashlari tarixini o‘rganish uchun ham juda boy materiallarni jamlagan.

U turkiy xalqlarning Vatanga bo‘lgan muhabbatni va sadoqatlarini, Vatanni ardoqlash, unga tegishli har bir narsani muqaddas bilish, o‘zini shu Vatanning farzandi deb his qilish chin insonga xos fazilat sifatida e’zozlagan.

Asarda bilim olish insonni yuksaklikka ko‘tarishi,chunki ilm olish butun umr davomida sayohat qilishdek gap.Sayohatingiz davomida xursand qiladigan,ba’zan xafa qiladigan ,ko‘pincha asabiylashtiradigan holatlarga duch kelasiz.Ba’zan bu safarda yo‘qolib qolishingiz ham hech gap emas.Ammo ilmning avfzalligi shunda ko‘rinadiki,u ko‘paygani sari o‘zingiz va atrofdagi olamni yaxshiroq taniy boshlaysiz.

Bilim haqida:

Улугнї тілармән  
Täwarinp jўlärmän  
Tiläknî bolärmän  
Жўлким аңар ёплёнўр.

Bilimi istayman, molga suyanaman, ya’ni maqsadim ulug’lik uchun molni dastak qilib, tilagimni topaman. Buning uchun mol-u holim sarf bo’ladi[ Mahmud Koshg‘ariy 4.III.t: 99-b]

Bu she’riy parchada bilim olishdagi mashaqqatlar, bilim olishdagi to’siqlarga uchrashish mumkinligi haqida aytilgan.Shunga qaramay, bilim olish birinchi o'rinda turadi. Bilim olish maqsadida barcha boyligim fido deb aytildi.Bu she’riy

misralarda mashhur: "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" hadisi sharifning ma’nosи mujassamlashgan.

"Bilim istayman" degani ilm xohlayman degani. Bu bilim olish uchun ehtiyojning shakllantirilishi shart demakdir. Gap mana shu pedagogik talabga uyg‘unlik ustida bormoqda. Agar ehtiyojning shakllantirilishi shart ekanini nazarda tutsak, bu hodisaning o‘n birinchi asrda ancha puxta tarzda anglangani ochiq ma’lum bo‘ladi.

Mahmud Koshg‘riy to‘plagan materiallarda insonning ta’lim va tarbiyasida bilimga alohida e’tibor berilgani kuzatiladi. Olim xalq maqollarida ham ayni mana shu g‘oya mujassamlashganini yaxshi ilg‘aydi va quyidagi maqolni keltiradi:

Кут бўлгўсі білік. – Baxt belgisi bilim va aqldir.[Mahmud Koshg‘ariy.I.t:403-b.] Xalq maqolida bu g‘oyaning muhrlanishi hodisaning ancha qadimiy davrlar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, ajdodlarimiz inson hayotining mukammallahib borishida ilm va fanning ahamiyatini juda qadim zamonlardayoq yaxshi his etishgan. Ayni g‘oyalar asardagi boshqa adabiy janrlarda ham o‘zining takrorlanmas jihatlarini aks ettirgan.

Jumladan, ilm ahlining inson ruhiy kamolotidagi o‘rni haqida kitobdagи she’riy parchalardan birida shunday deyilgan:

Ёрдам tila, o`rganin bo`lma ko`vaz,

Ёрдамсізін öкүңсі ёңмагўза аңар[ Mahmud Koshg‘ariy 3. II.t.:253-b]. Ya`ni: Ilm, hikmat o`rgan, o`rganishdan havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o`rganmasdan o`zini bilimdon ko`rsatib maqtagan kishi, imtixon vaqtida uyaladi. Bu o`rinda olim kamtarlik bilan ilmlarni puxta o`rganish, egallashni maslahat beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, ilm o`rganishda eng to`gri yo`l dono, bilimdon odamlarga ergashishdir. Ammo ularning pand-nasihatlarini hayotga tadbiq eta bilishdir.

Билгä ёріг ёзгу тутиб сөзін ёшіт,

Ёрдәміні ёгрәнібән ўшқä сүрә [ Mahmud Koshg‘ariy 2. I.t :403-b]

Ya`ni: ilqli, aqilli odamlarga yaxshilik qilib, so`zlarini tingla. Ilmlarni o`rganib, amalga oshir,- deydi Mahmud Qoshg`ariy va o`z o`g`liga ham:

Оғлум öгүт алғїл биликсізлік кәтар,

Талқан кімің болса аңар бўкмäс қатар [ .Mahmud Koshg‘ariy .2.I .t:413-b]

Ya`ni: O`g`lim, o`git-kengashimni qulog`ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo`lsa, shinniga qoradi, – deb aqilli kishi nasihatni qabul qilishi kerakligini ta`kidlaydi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki:

- 1) Kichiklar kattalarning o‘git-nasihatlari bilan tarbiyalanishi, ulardan oziqlanishi;

- 2) Nodonlik va jaholatdan qutilish;
- 3) Kattalar nasihatiga amal qilish faqat ezgulik keltiradi,inson hayotining foydali bo‘lishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Bu o‘rinda ajdodlar hayotiga,kundalik turmushiga xos bo‘lgan hayotiy ehtiyoj va odatlarga murojaat e’tiborga loyiq.Inson talqonni yesa qorni to‘q bo‘ladi.Ammo talqonga shinni qo‘shib qorilsa,uning ta’mi-mazasida ijobiy tomonga o‘zgarish bo‘ladi.Inson oladigan lazzat va huzur ko‘payadi.Xuddi shunga o‘xhash ,kattalarning o‘git va pandlari ham yoshlar uchun xuddi talqonga shinni qo‘shilganday huzurbaxsh bo‘ladi.

Erk, mustaqillik, vatanparvarlik g`oyalariga nazar tashlanar ekan erk, ozodlik, mustaqillik insoniyatni hamma vaqt faol harakat qilishga chorlagani ochiq ko‘rinadi. Ozodlik, mustaqillik istagan inson учун loqaydlik, beparvolik yot bo‘lgan, aksincha bunday g‘oyalar uni faol harakatga undagan,kurashga chorlagan.Mutafakkir mana shunday g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan badiiy asar namunalarini,xalq og‘zaki ijodidagi she’r va qo‘shiqlarni,afsona va rivoyatlarni,maqol namunalarini to‘plagan va o‘z kitobiga kiritgan.

“Ökўz azaqi bolfiňcha, buzofу вашїи болса јик”[ . Mahmud Koshg‘ariy.2 .I. t: 91-b] – ho`kizning oyog`i bo`lguncha, buzoqning boshi bo`lgan yaxshiroq, – deb “Mustaqillik bo`yshunishdan yaxshi”ligini aytadi. Bu maqolning qo‘llanishi bejiz emas.Bu xalqning o‘z farzandlariga yurt va mamlakat taqdiri haqida juda erta yoshdan qayg‘urish joizligini,xalq bu borada juda katta tajribaga egaligini ko‘rsatib turadi.Qolaversa inson ruhida mana shu o‘y,tushuncha,ya’ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning boshqalar qo‘liga tushib qolmasligi haqidagi fikr va tuyg‘ularning juda erta yoshidan boshlab eshitib,uning amaliy natijalarini kuzatib borishga o‘rgatishning muntazamligini ko‘rsatib bera oladi.

Namunalardan ko‘rinadiki,xalq mardlik, dovyuraklik, abjirlik kabi hislatlarni Vatan himoyachisiga xos fazilat deb tushunadi. U dushmaniga nisbatan shafqatsiz bo‘ladi. Kitobdag'i bir adabiy parchada dushman bilan ro‘para kelgan qahramonning quyidagi mulohazalari ayni mana shu xulosalarni tasdiqlaydi:

Отру тіріб жағді аңар кіш оқі јілшівар

Аjdim acif к ёлғу ёмäc сён таки јалвар [ .Mahmud Koshg‘ariy.3. II.t: 455-b].Ya’ni: Menga yuzlangach, sug`doqdan o`qni yomg`irdek yog`dirdim. Endi sening yalinib yolvorishlaring foyda bermaydi, dedim”.

Jangavor qahramon tilidan aytيلاتган bunday otashin so‘zlar jangchini matonati,jasorati,dushman oldida pinagini buzmasligi haqidagi ma'lumotlarni beringina qolmasdan,ushbu matn o‘quvchi ( tinglovchi)larga ham kuchli ijobiy ta’sir o‘tkazadi ham.Bir tomondan jangchining shaxsiy fazilatlariga e’tibor unga nisbatan

havasni uyg‘otsa,ikkinchi tomondan,uning o‘zida ham shunday harakat va fazilatlarni takrorlashga ishtiyoq tug‘diradi

Qarindoshlarga, qo`ni-qo`shnilarga muravvatli bo`lish ham ulug` yaxshilikdir. Olimning ta`kidlashlashicha, yaxshilikning javobi yaxshilik, ezgulik, himmat ko`ratischdir. Yaxshilik mujassamlangan kishi maqtaladi.

Ayrim maqollar kishini ehtirotkorlikka,o‘z nomining qora bo‘lib qolmasligi uchun kishining o‘zi g‘amxo‘rlik qilishi lozimligiga undov sifatida yuzaga kelgan

Köb cўkўtgä куш қонар,

Köplýk kishirä çöz kölip. [ Mahmud Koshg‘ariy .2.I.t :310-b].Ya`ni: Shoxi ko`p, shoxlari o`ralib ketgan daraxtga qush qo`nadi, yaxshi kishiga so`z maqtov keladi<sup>1</sup>.

Ushbu maqolning boshqa bir ma’nosи ham mavjud:xuddi shoxlari ko‘p bo‘lgan daraxtga qushlarning qo‘nishi va uning qushlar tomonidan ifloslanishi mumkin bo‘lganiday ,hamma ishlari mutanosib bo‘lgan (“Körklýk”)kishiga ba’zan gap tegishi(“söz këlir”)mumkin.Maqol mana shunday salbiy hodisa obyekti bo‘lib bo‘lib qolishidan ogohlantirmoqda.

Matn ostidagi ushbu ma’noni to‘la ilg‘ash uchun Mahmud Koshg‘ariy tomonidan keltirilgan ayni maqolning ikkinchi bir variant yaxshi yordam beradi:

Жіғач ўчінә жёлтёгір ,

Körklýk kishirä çöz kölip [ Mahmud Koshg‘ariy.2 .I.t:310-b]

Daraxt uchiga shamol tegadi,yumshoq odamga so‘z yetadi,shuning uchun u o‘zini ehtirot qilishi kerak,deyiladi.

Nazarimizda maqol zamiridagi bunday hikmatli o‘gitlarni bugungi zamondoshlarimiz,ayniqsa,yoshlar,yigit va qizlarimiz puxta o‘zlashtirib olsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.Zero,dunyoda insonning sha’nidan ortiqroq hech narsa yo‘q.Shuning uchun ham u yoshlikdan boshlab,umrning oxirigacha asrab avaylanmog‘i joizdir.

Мехнат ва меҳнатсеварлик ҳақида ham “Devonu lug‘ot it turk ”da birmuncha yaxshi fikrlar berilib,xalq maqollari orqali izohlab berilgan.Tadbirkorlik, o`zaro ahillik, mehnatsevarlik, qadim davralardan beri insoniyat ulug`lab kelgan hislatlardir. Mahmud Koshg`ariy bu xislatlarni yuqori baholab, har bir kishiga mehnatning ahamiyatini uqtira oladigan maqollarga e’tibor beradi:

Ёмгак ёкіндә қалмас [ Mahmud Koshg‘ariy.2.I.t:134-b] – mehnat bo`sh ketmaydi, - deb ixlos bilan qilingan mehnatning zoye ketmasligini aytadi. Maqolning bugungi ko‘rinishi „Mehnat yerda qolmas “dir.

Mahmud Koshg`ariy kishilarni birlashib, o`zaro kengashib mehnat qilishga chorlaydi.,,Кёнäшлік білік ўзräшур, Кёнäшіз білік опрашур”[ Mahmud

Koshg‘ariy .I.t:235-b] - maslahatli ish borgan sari yaxshilanib boradi, bemaslahat ish borgan sari buzilishga yuz tutadi,-dedi u. Olimning fikricha, kengash bilan ish yuritish, har bir ishda boshqalar maslahati tajribasiga tayanish yaxshi fazilatdir.

„Devonu lug‘ot it turk “da yosh avlodning ilm olishga ,ilm orqali inson yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lishiga,shu bilan birga aqliy- axloqiy mehnat tarbiyasi, fuqarolik, diniy bag‘rikenlik, badiiy-estetik tarbiyasiga oid nihoyatda qimmatli va nodir tajribalar aks etgan. Xuddi shuning uchun ham bu asarni xalq pedagogikasining nodir namunasi sifatida qaralmog‘i bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

**Foydalanimagan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent.: O‘zbekiston, 2016-56 B
2. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Birinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
3. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Ikkinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
4. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Uchinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.